

Har qaysi davlat, har qaysi millat intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan 19-20-fevral kunlari tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-fevral kuni Anqara shahrida Turkiyaning yetakchi kompaniyalari va banklari rahbarlari bilan uchrashdi.

Tadbirda Turkiya savdo palatalari va birjalari uyushmasi, Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi, "Gebze" uyushgan sanoat zonasi, "Ziraat" banki, "Zorlu xolding", "Joshkunuz xolding", "Ekzachibashi", "Baykar", "Dunyagoz", "Kanimed saglik", "Bau global", "Xavelsan" kabi qator kompaniyalar vakillari ishtirok etdi.

O'zbekistonda qulay biznes muhitini yaratish bo'yicha qilinayotgan o'zgarishlar va xorijiy investorlarga yaratib berilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar turkiyalik ishbiarmonlarning yurtimizga qiziqishini oshirdi. Jumladan, oxirgi yillarda o'zaro savdo hajmi ikki barobardan ziyodga ortdi. Qo'shma shirkatlar soni salkam mingtaga ko'paydi. Transportda tashish ko'lamlari jadal kengayib bormoqda.

Bugungi kunda Turkiya kompaniyalari mamlakatimizda qurilish, energetika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, turizm, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda. Bunda qo'shma sarmoyaviy loyihalar ijrosi nazoratga olingani, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish rag'batlantirilayotgani muhim omil bo'lmoqda.

Masalan, 2019-yilda Turkiyaning "Calik Enerji" kompaniyasi ishtirokida Navoiy issiqlik elektr stansiyasining ikkinchi bug'-gaz qurilmasi ishga tushirildi.

Mamlakatimizda 1993-yildan buyon vakolatxonasi faoliyat ko'rsatayotgan Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi yurtimizdagi tibbiyot va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi hamda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan qator loyihalar hayotga tatbiq etilishida faol qatnashib kelmoqda.

O'zbekistonga qiziqish bildirayotgan turk kompaniyalari tibbiyot, ta'lim, mashinasozlik kabi sohalarga investitsiya kiritish, xalqaro sifat standartlarini joriy etish orqali yuqori sanoatlashgan mahsulotlar ishlab chiqarib, uchinchi davlatlarga eksport qilishni rejalashtirmoqda.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda biznes muhiti o'zgargani, byurokratiyaga barham berilgani, xorijiy investorlarga eshiklar ochilgani, ularga erkin ishlashi uchun kafolat berilishini ta'kidladi. Jumladan, O'zbekistonda investorlarga xuddi Turkiyadagi kabi barcha sharoitlar yaratib berilishini qayd etdi.

– O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Bugun mamlakatimizga kirgan kompaniya albatta manfaat topadi. Men bunga kafolat beraman. Buning uchun zarur huquqiy, institutsional sharoitlar yaratib beriladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'tgan yili investitsiya bo'yicha qonun qabul qilindi. Bu qonun bilan endilikda O'zbekistonda investorlarning barcha huquqlari himoya qilinadi.

Prezidentimiz endilikda turkiyalik ishbilarmonlar bilan muntazam muloqot olib borilishi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligida 5 nafar xodim faqat investitsiya bo'yicha ishlashini ta'kidlab, turk tadbirkorlarini faollikka chorladi.

Uchrashuvda kelishuvlar va imzolangan bitimlarni keng ko'lamda amalga oshirish, savdo, innovatsiya, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport, turizm, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalarni faol ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Turkiyalik ishbilarmonlar o'tgan yili O'zbekistonga borgani, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'zgarishlarga, odamlarda "islohotlar tafakkuri"ga guvoh bo'lganini ta'kidladi. O'zbekiston bozoriga kirish, hamkorlikda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish niyatida ekanini bildirdi.

Shu bilan bir qatorda "Ronesans Holding" bilan "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatini modernizatsiya qilish va rivojlantirishga 630 million yevro, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga 4,1 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish, shuningdek, shifoxonalar va savdo markazlarini qurish bo'yicha umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollarlik yangi loyihalarni amalga oshirish to'g'risida kelishuvlarga erishildi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Turkiyaning vazirlik va kompaniyalari o'rtasida aloqalarni yana-da rivojlantirish, o'zaro mahsulot yetkazib berish, xizmat ko'rsatishni kengaytirish, klinikalar va oliy o'quv yurtlari tashkil etish bo'yicha aniq loyihalar muhokama qilindi. Prezidentimiz bu rejalarni ma'qullab, mutasaddilarga tez fursatlarda amaliy ishlarga o'tish, byurokratik to'siqlarsiz ularni hayotga tatbiq etish bo'yicha topshiriqlar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasi tanantali ochilish marosimida ishtirok etdi.

Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdog'an tashabbusi bilan bunyod etilgan ushbu majmua Prezident qarorgohidan tashqari turli davlat muassasalari, kongress-xol, madaniyat markazi, masjid va Xalq kutubxonasidan tashkil topgan. 4 million bosma nashr va 120 milliondan ziyod elektron fayldan iborat fondga ega kutubxona xizmat darajasi bo'yicha dunyodagi eng ulkanlaridan biridir. Ushbu ma'naviy boylik maskani Prezident qarorgohi – Jumhur bashkanligi saroyi yonida qurilgani ham uning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kutubxona arxitekturasi, shuningdek, butun majmua loyihasi turk muhandisi Shafik Birke tomonidan milliy me'morlik va zamonaviy uslublarni uyg'unlashtirgan holda ishlangan. Loyihani yaratishda bir qancha rivojlangan davlatlar ziyo maskanlari, AQSHdagi Prezident kutubxonasi, Buyuk Britaniya, Fransiya milliy kutubxonalari tajribalari o'rganilgan.

Kutubxona qurilishi 2015-yili boshlangan. Umumiy maydoni 125 ming kvadrat metrdan iborat binoning asosiy qismi 11 qavat bo'lib, markaziy katta gumbaz va foye, o'qish va ko'p tarmoqli zallar, qadimiy qo'lyozma adabiyotlarni restavratsiya qilish laboratoriyasi, arxiv majmuasi, ko'rgazma maydonlari, bolalar uchun audio va video ko'rish xonalari, nashrlarni saqlash fondlari, kafelar, restoranlardan tashkil topgan.

Ushbu ma'rifat maskani eng zamonaviy texnik imkoniyatlarga ega bo'lib, yangi formatdagi kutubxona xizmatlarini o'zida mujassam etgan.

Ochilish marosimida butun dunyodan ikki mingga yaqin mehmon –olimlar, yozuvchilar, ta'lim va madaniyat namoyandalari, davlat va jamoat arboblari qatnashdi. Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezidenti tomonidan taklif etilgan oliy darajadagi yagona mehmon bo'ldi.

Bunda ham o'ziga xos chuqur ma'no bor. Davlatimiz rahbarining kitobga mehri, kitobxonlik targ'ibotiga e'tibori bo'lakcha. Ma'rifat, ta'lim, yoshlar tarbiyasiga oid xalqaro tashabbuslari ham barchaga ma'lum. Joriy yil O'zbekistonda Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili, deb e'lon qilingani ham ilmga e'tiborning yana bir dalolati.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari shunday muhim va shukuhli voqeaga taklif uchun minnatdorlik bildirib, qardosh turk xalqini ushbu ilm-ma'rifat maskani bilan muborakbod etdi.

– Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, – dedi Prezidentimiz.

O'zbek va turk xalqlarining ildizi bir, ma'naviyati mushtarak. Imom Buxoriy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumi, Yunus Emro, Alisher Navoiy merosi xalqlarimizning milliy yuksalishiga katta hissa qo'shgan. Qozizoda Rumi Samarqandda mudarrislik qilgan. Ali Qushchi hayotining so'nggi yillarini Istanbulda o'tkazgan. Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So'fizoda, Said Ahroriy kabi ko'plab jadid bobolarimiz Turkiyada tahsil olgan.

Bugungi kunda Istanbulda Abu Rayhon Beruniy nomidagi universitet bor. Turkiya kitob fondlarida Alisher Navoiy asarlarining 100 dan ortiq qo'lyozmalari saqlanib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari yurtimizda zamonaviy maktablar, ilmiy-ma'rifiy markazlar tashkil etilayotganini ta'kidladi.

Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, hadis, kalom, aqiyda, tasavvuf, fiqh maktablari ochilgan. Toshkent shahrida ko'p asrlik ma'rifat xazinasini namoyon etadigan, fundamental tadqiqotlar olib boriladigan Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilmoqda.

Bu yil ulug' allomalar Abduxoliq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband tavalludlariga bag'ishlangan tadbirlar o'tkaziladi. Mahmudxo'ja Behbudiy tug'ilganining 145-yillik sanasi nishonlanadi. Shuningdek, joriy yilda Buxoro shahri "Islom madaniyati poytaxti", Xiva shahri "Turkiy dunyo madaniyati poytaxti" deb e'lon qilingani munosabati bilan bir qator xalqaro anjumanlar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz turkiyalik olimlar, adabiyotshunos va dinshunoslarni ushbu madaniy-ma'rifiy tadbirlarga taklif etdi. O'zbekistonning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod noyob qo'lyozma asarlar saqlanayotgani, ularning aksariyati o'z tadqiqotchilarini kutayotganini ta'kidladi.

Turkiya Prezidenti ushbu quvonchli ayyomda O'zbekiston Prezidenti rafiqasi bilan birga ishtirok etayotgani uchun tashakkur izhor etdi.

– O'zbekiston biz uchun madaniy tasavvurimizni shakllantirgan, olimlarni yetishtirgan, ilm, irfon va ma'naviy dunyomizni ta'minlagan hayotiy manbalarimizdan eng muhimidir, – dedi Rejep Tayyip Erdog'an. – Ilm muhiti asrlar davomida Toshkent bilan Anqara, Samarqand bilan Konyo, Buxoro bilan Bursa, Xiva bilan Edirneni bog'lab, o'zaro boyitgandir. Bu kun Xalq kutubxonasini Janobi Oliyilari bilan birgalikda ochib, mushtarak madaniyatimiz haqida butun dunyoga muhim bir ishora bermoqdamiz.

Shavkat Mirziyoyev dunyoda o'ta noyob bo'lgan "Usmon Mus'hafi"ning xattotlarimiz tomonidan ko'chirilgan nusxasi, Jaloliddin Rumiyni mashhur "Masnaviy" asari hamda Abu Bakr ar-Roziyning "Kasalliklar tarixi" asari qo'lyozmalarining faksimile nusxalari,

"Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari" nomli kitob-albom, Yunus Emro she'rlarining o'zbek tiliga tarjimai jamlangan "O'lmas ko'ngul" deb nomlangan kitoblarni kutubxonaga tuhfa qildi.

Shuningdek, Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasiga 350 dan ziyod turli mavzudagi kitoblar taqdim etildi.

Davlat rahbarlari rafiqalari hamrohligida Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasi faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va rafiqasi mazkur mahobatli koshonaning birinchi faxriy mehmonlari bo'lishdi.

Noyob kitoblar ko'rgazmasi namoyish etildi. Turkiya Prezidenti davlatimiz rahbariga noyob kitoblardan birini sovg'a qildi. Davlat rahbarlari birgalikda O'zbekistondan keltirilgan kitoblar ko'rgazmasi bilan ham tanishdilar.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga tashrifi yakunlandi. Oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya muloqotining yangi formatiga asos solgan ushbu tashrif mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning muhim istiqbollari belgilab berdi. O'tkazilgan uchrashuv hamda muzokaralar, imzolangan hujjatlar, erishilgan kelishuvlar ikki davlat munosabatlari va qardosh xalqlar do'stligini har tomonlama mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning taklifiga binoan 19-20-fevral kunlari tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-fevral kuni Anqara shahrida Turkiyaning yetakchi kompaniyalari va banklari rahbarlari bilan uchrashdi. Tadbirda Turkiya savdo palatalari va birjalari uyushmasi, Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi, "Gebze" uyushgan sanoat zonasi, "Ziraat" banki, "Zorlu xolding", "Joshkunoz xolding", "Ekzachibashi", "Baykar", "Dunyagoz", "Kanimed saglik", "Bau global", "Xavelsan" kabi qator kompaniyalar vakillari ishtirok etdi.

O'zbekistonda qulay biznes muhitini yaratish bo'yicha qilinayotgan o'zgarishlar va xorijiy investorlarga yaratib berilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar turkiyalik ishbiarmonlarning yurtimizga qiziqishini oshirdi. Jumladan, oxirgi yillarda o'zaro savdo hajmi ikki barobardan ziyodga ortdi. Qo'shma shirkatlar soni salkam mingtaga ko'paydi. Transportda tashish ko'lamlari jadal kengayib bormoqda.

Bugungi kunda Turkiya kompaniyalari mamlakatimizda qurilish, energetika, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, turizm, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda faoliyat yuritmoqda. Bunda qo'shma sarmoyaviy loyihalar ijrosi nazoratga

olingani, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarida yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish rag'batlantirilayotgani muhim omil bo'lmoqda.

Masalan, 2019-yilda Turkiyaning "Calik Enerji" kompaniyasi ishtirokida Navoiy issiqlik elektr stansiyasining ikkinchi bug'-gaz qurilmasi ishga tushirildi.

Mamlakatimizda 1993-yildan buyon vakolatxonasi faoliyat ko'rsatayotgan Turkiya hamkorlik va muvofiqlashtirish agentligi yurtimizdagi tibbiyot va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligi hamda kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yo'naltirilgan qator loyihalar hayotga tatbiq etilishida faol qatnashib kelmoqda.

O'zbekistonga qiziqish bildirayotgan turk kompaniyalari tibbiyot, ta'lim, mashinasozlik kabi sohalarga investitsiya kiritish, xalqaro sifat standartlarini joriy etish orqali yuqori sanoatlashgan mahsulotlar ishlab chiqarib, uchinchi davlatlarga eksport qilishni rejalashtirmoqda.

Davlatimiz rahbari O'zbekistonda biznes muhiti o'zgargani, byurokratiyaga barham berilgani, xorijiy investorlarga eshiklar ochilgani, ularga erkin ishlashi uchun kafolat berilishini ta'kidladi. Jumladan, O'zbekistonda investorlarga xuddi Turkiyadagi kabi barcha sharoitlar yaratib berilishini qayd etdi.

– O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Bugun mamlakatimizga kirgan kompaniya albatta manfaat topadi. Men bunga kafolat beraman. Buning uchun zarur huquqiy, institutsional sharoitlar yaratib beriladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

O'tgan yili investitsiya bo'yicha qonun qabul qilindi. Bu qonun bilan endilikda O'zbekistonda investorlarning barcha huquqlari himoya qilinadi.

Prezidentimiz endilikda turkiyalik ishbilarmonlar bilan muntazam muloqot olib borilishi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligida 5 nafar xodim faqat investitsiya bo'yicha ishlashini ta'kidlab, turk tadbirkorlarini faollikka chorladi.

Uchrashuvda kelishuvlar va imzolangan bitimlarni keng ko'lamda amalga oshirish, savdo, innovatsiya, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport, turizm, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoati, boshqa tarmoqlarda qo'shma loyihalarni faol ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Turkiyalik ishbilarmonlar o'tgan yili O'zbekistonga borgani, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida o'zgarishlarga, odamlarda "islohotlar tafakkuri"ga guvoh bo'lganini ta'kidladi. O'zbekiston bozoriga kirish, hamkorlikda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish niyatida ekanini bildirdi.

Shu bilan bir qatorda "Ronesans Holding" bilan "O'zbekiston metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyatini modernizatsiya qilish va rivojlantirishga 630 million yevro, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga 4,1 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kiritish, shuningdek, shifoxonalar va savdo markazlarini qurish bo'yicha umumiy qiymati qariyb 3 milliard dollarlik yangi loyihalarni amalga oshirish to'g'risida kelishuvlarga erishildi.

Uchrashuvda O'zbekiston bilan Turkiyaning vazirlik va kompaniyalari o'rtasida aloqalarni yana-da rivojlantirish, o'zaro mahsulot yetkazib berish, xizmat ko'rsatishni kengaytirish, klinikalar va oliy o'quv yurtlari tashkil etish bo'yicha aniq loyihalar muhokama qilindi. Prezidentimiz bu rejalarni ma'qullab, mutasaddilarga tez fursatlarda amaliy ishlarga o'tish, byurokratik to'siqlarsiz ularni hayotga tatbiq etish bo'yicha topshiriqlar berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Anqara shahrida Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasining tantanali ochilish marosimida ishtirok etdi.

Turkiya rahbari Rejep Tayyip Erdog'an tashabbusi bilan bunyod etilgan ushbu majmua Prezident qarorgohidan tashqari turli davlat muassasalari, kongress-xol, madaniyat markazi, masjid va Xalq kutubxonasidan tashkil topgan. 4 million bosma nashr va 120 milliondan ziyod elektron fayldan iborat fondga ega kutubxona xizmat darajasi bo'yicha dunyodagi eng ulkanlaridan biridir. Ushbu ma'naviy boylik maskani Prezident qarorgohi – Jumhur bashkanligi saroyi yonida qurilgani ham uning ahamiyatini ko'rsatadi.

Kutubxona arxitekturasi, shuningdek, butun majmua loyihasi turk muhandisi Shafik Birke tomonidan milliy me'morlik va zamonaviy uslublarni uyg'unlashtirgan holda ishlangan. Loyihani yaratishda bir qancha rivojlangan davlatlar ziyo maskanlari, AQSHdagi Prezident kutubxonasi, Buyuk Britaniya, Fransiya milliy kutubxonalari tajribalari o'rganilgan.

Kutubxona qurilishi 2015-yili boshlangan. Umumiy maydoni 125 ming kvadrat metrdan iborat binoning asosiy qismi 11 qavat bo'lib, markaziy katta gumbaz va foye, o'qish va ko'p tarmoqli zallar, qadimiy qo'lyozma adabiyotlarni restavratsiya qilish laboratoriyasi, arxiv majmuasi, ko'rgazma maydonlari, bolalar uchun audio va video ko'rish xonalari, nashrlarni saqlash fondlari, kafelar, restoranlardan tashkil topgan.

Ushbu ma'rifat maskani eng zamonaviy texnik imkoniyatlarga ega bo'lib, yangi formatdagi kutubxona xizmatlarini o'zida mujassam etgan.

Ochilish marosimida butun dunyodan ikki mingga yaqin mehmon –olimlar, yozuvchilar, ta'lim va madaniyat namoyandalari, davlat va jamoat arboblari qatnashdi. Shavkat Mirziyoyev Turkiya Prezidenti tomonidan taklif etilgan oliy darajadagi yagona mehmon

bo'ldi.

Bunda ham o'ziga xos chuqur ma'no bor. Davlatimiz rahbarining kitobga mehri, kitobxonlik targ'ibotiga e'tibori bo'lakcha. Ma'rifat, ta'lim, yoshlar tarbiyasiga oid xalqaro tashabbuslari ham barchaga ma'lum. Joriy yil O'zbekistonda Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili, deb e'lon qilingani ham ilmga e'tiborning yana bir dalolati.

Marosimda Prezident Shavkat Mirziyoyev nutq so'zladi.

Davlatimiz rahbari shunday muhim va shukuhli voqeaga taklif uchun minnatdorlik bildirib, qardosh turk xalqini ushbu ilm-ma'rifat maskani bilan muborakbod etdi.

– Dunyodagi har qaysi davlat, har qaysi millat birinchi navbatda o'zining intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir. Bunday yengilmas kuch manbai esa, avvalo, insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyoti – kitob va kutubxonalarda, – dedi Prezidentimiz.

O'zbek va turk xalqlarining ildizi bir, ma'naviyati mushtarak. Imom Buxoriy, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Yunus Emro, Alisher Navoiy merosi xalqlarimizning milliy yuksalishiga katta hissa qo'shgan. Qozizoda Rumiy Samarqandda mudarrislik qilgan. Ali Qushchi hayotining so'nggi yillarini Istanbulda o'tkazgan. Abdurauf Fitrat, Muhammadsharif So'fizoda, Said Ahroriy kabi ko'plab jadid bobolarimiz Turkiyada tahsil olgan.

Bugungi kunda Istanbulda Abu Rayhon Beruniy nomidagi universitet bor. Turkiya kitob fondlarida Alisher Navoiy asarlarining 100 dan ortiq qo'lyozmalari saqlanib kelmoqda.

Davlatimiz rahbari yurtimizda zamonaviy maktablar, ilmiy-ma'rifiy markazlar tashkil etilayotganini ta'kidladi.

Samarqandda Imom Buxoriy, Surxondaryoda Imom Termiziy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, hadis, kalom, aqiyda, tasavvuf, fiqh maktablari ochilgan. Toshkent shahrida ko'p asrlik ma'rifat xazinasini namoyon etadigan, fundamental tadqiqotlar olib boriladigan Islom sivilizatsiyasi markazi bunyod etilmoqda.

Bu yil ulug' allomalar Abduxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin Naqshband tavalludlariga bag'ishlangan tadbirlar o'tkaziladi. Mahmudxo'ja Behbudiy tug'ilganining 145-yillik sanasi nishonlanadi. Shuningdek, joriy yilda Buxoro shahri "Islom madaniyati poytaxti", Xiva shahri "Turkiy dunyo madaniyati poytaxti" deb e'lon qilingani munosabati bilan bir qator xalqaro anjumanlar tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Prezidentimiz turkiyalik olimlar, adabiyotshunos va dinshunoslarni ushbu madaniy-ma'rifiy tadbirlarga taklif etdi. O'zbekistonning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod noyob qo'lyozma asarlar saqlanayotgani, ularning aksariyati o'z tadqiqotchilarini kutayotganini ta'kidladi.

Turkiya Prezidenti ushbu quvonchli ayyomda O'zbekiston Prezidenti rafiqasi bilan birga ishtirok etayotgani uchun tashakkur izhor etdi.

– O'zbekiston biz uchun madaniy tasavvurimizni shakllantirgan, olimlarni yetishtirgan, ilm, irfon va ma'naviy dunyomizni ta'minlagan hayotiy manbalarimizdan eng muhimidir, – dedi Rejep Tayyip Erdog'an. – Ilm muhiti asrlar davomida Toshkent bilan Anqara, Samarqand bilan Konyo, Buxoro bilan Bursa, Xiva bilan Edirneni bog'lab, o'zaro boyitgandir. Bu kun Xalq kutubxonasini Janobi Oliylari bilan birgalikda ochib, mushtarak madaniyatimiz haqida butun dunyoga muhim bir ishora bermoqdamiz.

Shavkat Mirziyoyev dunyoda o'ta noyob bo'lgan "Usmon Mus'hafi"ning xattotlarimiz tomonidan ko'chirilgan nusxasi, Jaloliddin Rumiyning mashhur "Masnaviy" asari hamda Abu Bakr ar-Roziyning "Kasalliklar tarixi" asari qo'lyozmalarining faksimile nusxalari, "Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi tasviriy nusxalari" nomli kitob-albom, Yunus Emro she'rlarining o'zbek tiliga tarjimai jamlangan "O'lmas ko'ngul" deb nomlangan kitoblarni kutubxonaga tuhfa qildi.

Shuningdek, Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasiga 350 dan ziyod turli mavzudagi kitoblar taqdim etildi.

Davlat rahbarlari rafiqalari hamrohligida Turkiya Respublikasi Prezidenti devoni Xalq kutubxonasi faoliyati bilan tanishdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev va rafiqasi mazkur mahobatli koshonaning birinchi faxriy mehmonlari bo'lishdi.

Noyob kitoblar ko'rgazmasi namoyish etildi. Turkiya Prezidenti davlatimiz rahbariga noyob kitoblardan birini sovg'a qildi. Davlat rahbarlari birgalikda O'zbekistondan keltirilgan kitoblar ko'rgazmasi bilan ham tanishdilar.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga tashrifi yakunlandi. Oliy darajadagi O'zbekiston – Turkiya muloqotining yangi formatiga asos solgan ushbu tashrif mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikning muhim istiqbollari belgilab berdi. O'tkazilgan uchrashuv hamda muzokaralar, imzolangan hujjatlar, erishilgan kelishuvlar ikki davlat munosabatlari va qardosh xalqlar do'stligini har tomonlama mustahkamlashga xizmat qiladi.